



A X B O R O T X A T I

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktyabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084 sonli Farmoni, 2018-yil 5- iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-sonli, “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli Qarorlarining ijrosini ta’minlash maqsadida “International school of finance technology and science” instituti filologiya kafedrasida respublika miqyosida **“TILLARNI O‘QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR”** mavzusida ilmiy-amaliy anjuman o‘tkaziladi. Anjumanning asosiy maqsadi – xorijiy tillarni o‘rgatishni, davlat tilini o‘qitish tizimini yanada takomillashtirishni ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida rivojlantirish, ushbu yo‘nalishda ta’lim sifatini tubdan oshirish, sohaga malakali pedagoglarni jalb etish hamda talabalarning xorijiy tillarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirish bo‘yicha ilmiy-amaliy jihatdan asoslangan takliflar ishlab chiqish hisoblanadi. Ilmiy-amaliy anjumanda roman-german, slavyan, turkiy tillarni o‘rganish va o‘rgatishda innovatsion texnologiyalarni joriy etish masalalari muhokama qilinadi.

Ilmiy-amaliy anjuman 2024-yil 29-30-mart sanalarida o‘tkazilishi rejalashtirilgan. O‘tkazish sanalarida o‘zgarishlar yuzaga kelsa, bu to‘g‘risida qo‘shimcha xabar beriladi.

Ilmiy-amaliy anjuman materiallari bo‘yicha elektron to‘plam nashr etilishi belgilangan. Anjuman ishtirokchilari quyida keltirilgan talablar asosida rasmiylashtirilgan maqolani 2024-yil 10-martgacha bo‘lgan muddatda anjuman tashkiliy qo‘mitasiga taqdim qilishlari lozim.

Manzilibiz: 111218, Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani, Bahor MSG,122/5 uy,. **Anjuman o‘tkazish bo‘yicha tashkiliy qo‘mita** (Ilmiy kotib: D.Sh.Shadiyeva tel.: +998 946624321).

“International school of finance technology and science” instituti filologiya kafedrası tomonidan respublika miqyosida o‘tkaziladigan **“TILLARNI O‘QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR”** mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumanga maqola taqdim etish shartlari:

Ilmiy maqola OAK talablari bo‘yicha tayyorlanib, xorijda va boshqa ixtisoslashtirilgan ilmiy jurnallar, ilmiy-amaliy konferensiyalar materiallarida nashr etish uchun topshirilmagan, ommaviy axborot vositasida chop etilmagan va plagiat (ko‘chirmachilik)ga yo‘l qo‘yilmagan bo‘lishi kerak. Ilmiy maqola ish bajarilayotgan tashkilot tomonidan ilmiy taqriz va ekspertiza xulosasi bilan topshiriladi.

Ilmiy-amaliy anjuman materiallari bo‘yicha ma‘ruzalar to‘plami **mualliflariga badal (kompensatsiya), qalam haqi to‘lanmaydi.**

Maqolaning birinchi beti quyidagilardan iborat bo‘lishi kerak:

- maqola sarlavhasi;
- muallif(lar) ismi, otasining ismi, sharifi;
- muallif(lar)ning ilmiy darajasi, unvoni, lavozimi, ishlaydigan tashkilot, shahar, mamlakat nomi;
- muallif(lar)ning elektron manzili (e-mail), telefon va faks raqamlari;
- barcha ma‘lumotlar o‘zbek, rus va ingliz tillarida berilishi kerak;
- bu talab Ilm-fan bo‘limi tomonidan tashkillashtiriladigan respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallariga ham tegishlidir.

Maqola annotatsiyasi va kalit so‘zlar

Maqolaning qisqacha annotatsiyasi 8-10 satrdan oshmagan holda o‘zbek, rus va ingliz tillarida beriladi. Unda tadqiqot muammosi, uning dolzarbligi, tadqiqot muammosini ochib berish uchun qo‘llanilgan metodologiya, tadqiqot natijalari, muallifning ilmiy va amaliy hissasi qisqacha bayon qilinadi.

Kalit so‘zlar (indeksatsiya uchun) 6-8 so‘zdan iborat bo‘lib, o‘zbek, rus va ingliz tillarida berilishi kerak.

Formatlash

Maqolada “Times New Roman” shrifti, “Microcoft Word” redaktoridan foydalanish tavsiya etiladi. Betlarni avtomatik tarzda belgilash lozim. Jadvallar “Microcoft Word”ning “Tablitsa” funksiyasi orqali kiritiladi.

Maqola matni shrifti

Matn shrifti 14, qatorlar oralig‘i 1,5 intervalda bo‘lishi lozim. Maqolaning maksimal hajmi 8 betdan oshmasligi, minimal hajmi esa 4 betdan kam bo‘lmasligi kerak.

Qisqartmalar

Matnda birinchi marta keltirilganda to‘liq bayon qilinishi kerak. Foydalanilgan adabiyotlardan olingan materialga havola adabiyotlar ro‘yxatidagi tartib raqami va shu adabiyotga iqtibos material joylashgan betda qavs ichida, matnning o‘zida alohida ko‘rsatiladi. Masalan [1;8] tarzida.

Surat, grafik, chizma, diagrammalar “rasm” so‘zi bilan ifodalanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati kamida 8 manbadan iborat bo'lishi kerak. Ushbu ro'yxatda nashr etilgan va maqolada havola etilgan adabiyotlar keltiriladi. Boshqa adabiyotlar faqat maqolaning matnida bayon qilinadi. Havola etilgan adabiyotlar sahifa ostida izohlanmaydi. Adabiyotlar alifbo tartibida birinchi muallifning sharifi bo'yicha tuziladi va OAK talablari bo'yicha rasmiylashtiriladi.

Jadvallar

Barcha jadvallar arab raqami bilan belgilanadi.

Maqola matnida jadvallarni raqamlash ketma-ketlikda bajariladi. Har bir jadval komponentlarini aks ettiruvchi sarlavha qo'yiladi. Ma'lumotlarga izoh berish jadvalning quyi qismiga kichik harflar ustki indeksi shaklida keltiriladi.

Alohida talablar

Har bir maqola <https://antiplagiat.ru/uz/> tekshiruvidan o'tkazilishi va matnlarni o'zlashtirishlarni aniqlash bo'yicha sertifikat taqdim qilinishi shart.

E'lon qilish muddati va shartlari

Maqola yuqorida keltirib o'tilgan talablarga to'liq javob berganidan so'ng, tashkiliy qo'mita xulosasi asosida elektron nashr qilinadigan to'plamga yoki institutning "ISFT" ilmiy-uslubiy jurnalida e'lon qilinadi. Muallif haqidagi hamda maqolada keltirilgan ma'lumotlar, fakt, raqamlarning to'g'riligi, aniqligi uchun mualliflar javobgar.

Izoh: savol kelib chiqqan ba'zi maqolalar borasida tashkiliy qo'mita qo'shimcha ma'lumot so'rash huquqiga ega.

Tashkiliy qo'mita manzili:

111218, Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani, Bahor MSG,122/5 uy,.
Anjuman o'tkazish bo'yicha tashkiliy qo'mita

Raqamlar:

+998 946624321

Tashkiliy qo'mita veb-sayti:

<https://conference.isft-ilm.uz/>

Elektron manzil:

gulnozanajmutdinova18@gmail.com, dilfuzashadiyeva44@gmail.com

Telegram:

<https://t.me/isftconference>